



BOLALAR NUTQ PATOLOGIYASIGA OID KASALLIKLAR

Tursinbayeva Guzal Alimbayevna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi

1-kurs magistranti

e-mail: gtursinbaeva.259@gmail.com

Annotatsiya: Nutq patologiyasiga oid kasalliklar bugungi davr bolalari uchun eng katta xavf solib turgan kasalliklardan biridir. Maktab yoshidagi bolalarda, asosan, ko‘p kuzatiladi va bunday kasalliklarning kelib chiqish sabablari va yechimlari maqola yaratishdagi asosiy maqsaddir. Chunki nutq patologiyasiga oid kasalliklarning kelib chiqishi psixologiyaga borib taqaladi.

Kalit so‘zlar: Broka, Verniki, aleksiya, agrafiya, afaziya, epilepsiya, dislaliya.

Nutq patologiyasi – bu miyaning qaysidir qismidagi o‘zgarishlar yoki buzilishlar natijasida tilda namoyon bo‘ladigan holatlarni tushunamiz. Ya’ni, nutq patologiyasida, biz, muloqot qilish imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligi (umumiy muloqot yoki samarli muloqot qilish imkoni bor yoki yo‘qligi) haqidagi savolga duch kelamiz. Boshqa hollarda esa, nutqimizning chiroyli yo aksi bo‘lishidan xavotirga tushamiz. D.J.Jespersen ta’rifidan foydalangan holda: “Nutq patologiyasini qo‘llash me’yorlaridan boshqa og‘ishlar bilan taqqoslash kerak, masalan, -tilining siljishi, -so‘z elementlarining o‘zgarishi, chalkashliklar, -so‘zlarning noto‘g‘ri ishlatilishi (parafaziyalar), ikkilanishlar va boshqalar global,- hamma joyda, muntazam bo‘lgan buzilishlar- kontekstli, vaziyatli, sporadik bo‘lgan buzilishlar. Buni alohida ta’kidlash kerak, chunki nutq patologiyasini o‘rganishda kuzatilgan faktlar va normal nutqni o‘rganishda kuzatilgan bir xil turdagi faktlar bir xil



bo'lishi mumkin". Bundan kelib chiqib, patopsixologiya va patopsixolingvistika o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va farqlarni quyidagicha izohlash mumkin:

“Patopsixologiya - aqliy faoliyat va shaxs xususiyatlarining parchalanish qonuniyatlari va miya aks ettirish faoliyatining buzilishi qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limi bo'lsa, patopsixolingvistikani -faoliyat va shaxsning tizimli parchalanishi (yoki shakllanmaganligi) sharoitida nutq jarayonlarining shakllanishi va borishidagi patologik og'ishlarni o'rganadigan ilmiy soha deb atash kerak”,-Zeigarnik¹.

Patopsixolingvistikada bolalar nutqiga oid eng ko'p uchraydigan quyidagi quyidagi kasalliklar o'rganish obyektiga olindi: aleksiya, agrafiya, afaziya, dislaliya, bradilaliya va taxilaliya.

Afaziya- (yunoncha **a-** inkor qo'shimchasi va **phasis** -fikir) – gapira olmaslik va so'zlash qobiliyatining buzilishi. Miyaning Broka va Verniki qismlari zararlanishiga qarab ular ikki xil afaziya yuzaga keladi.

- Miyaning broka qismi zararlansa, bemor gapira olmaydi, vaholanki, unga yuborilgan axborotni tushunadi, lekin javob qaytarishda tutilishlar, kerakli so'zni topa olmaslik holatlari kuzatiladi, bu jarayon - motorli afaziya deb yuritiladi.
- Miyaning verniki qismi zararlansa, bemorga o'ziga qaratilgan so'zlarning ma'nosini anglab yetmaydi va tushunarsiz tarzda undan so'ralmagan mavzular haqida gapiradi, o'z nutqini nazorat qila olmaydi, bu jarayon - sensorli afaziya deb yuritiladi.²

Tadqiqotimizda bu kasallik alomatlari maktab bolalarida deyarli kuzatilmadi.

Epilipsiya – (yunoncha **epilepsio** – ushlab olaman) bosh miya surunkali kasalligi, asosan, bolalar va keksalarda uchraydi. Nevropotologlar fikricha, yer sharining 5% aholisi butun umri mobaynida epileptik xurujni kamida bir marotaba boshidan o'tkazadi. Bunda bemorda sekin va tushunarsiz nutq, nutqning yopishqoqligi va tinimsiz takrorlashlar, aniq

¹ Zeigarnik.B.V Patopsixologiya (1986)

² O'zME. Birinchi jildi. Toshkent 2000-yil.



nutqni kamaytiruvchi soʻzlarning koʻp qoʻllanilishi kuzatiladi. Keyinchalik ogʻir shakllarda soʻz boyligining qashshoqlashishiga (**oligofaziya**) olib keladi. Uning rivojlanishida bir qator salbiy omillar: genetik, bosh miya jarohatlari, tugʻma anomaliyalar, infeksiyalar va boshqalarning roli katta. ³ Bunday holatlar dars davomida 5,6,7-sinf oʻquvchilarida koʻproq kuzatildi, 8,9- sinf oʻquvchilariga nisbatan. Bunday sharoitda oʻquvchilar bilan, bizningcha, koʻproq nutqni oʻstiruvchi mashqlar, oʻyinlar hamda har xil qiziqarli mashgʻulotlar dars davomida oʻqituvchi bilan birgalikda oʻtkazilishi zarurdir. Yoki matnlar bilan ishlash, ulardagi frazalarni yodlatish orqali bu kasallikni oldini olishimiz va oʻquvchilarning nutqiy faoliyatini yaxshilashimiz mumkin. Shu bilan cheklanib qolmasdan, oʻquvchilarning ota-onalari bilan maslahatlashgan holatda, mutaxassis jalb qilish kerak va bola bilan shugʻullanishini taʼminlash kerak.

Agrafiya- yozish qobiliyatining yoʻqolishidan kelib chiqadigan nutqning buzilishi (yozish qobiliyatining toʻliq yoʻqolishi, yoki soʻzlarning qoʻpol buzilishi, boʻgʻin va harflar qoldirish, harf va boʻgʻinlarni soʻzlarga birlashtira olmaslik va h.k.).⁴ Bosh miya chap yarim sharidagi chekka yoki tepa chekka qismining rivojlanmay qolishi yoki zararlanishi oqibatida vujudga keladi. Odatda afaziya bilan birga kechadi.

Aleksiya-bu oʻqish qobiliyatining buzilishi, oʻqish jarayonini oʻzlashtira olmaslik. Agrafiya va aleksiya hodisasi maktab bolalarida juda koʻp kuzatilgan kasallik boʻldi, 5,6,7- sinflarda agrafiya hodisasi 60% -65% kuzatilgan boʻlsa, 8,9- sinflarda 43%dan 50% gacha uchradi. Asosiy sabab sifatida, oʻquvchilarning bunday holatga tushib qolishiga eʼtiborsizlarcha munosabatda boʻlgan oʻqituvchilari va ota-onalaridir. Yechim sifatida, mutaxassis bilan birgalikda davomli tarzda kitob oʻqish bilan shugʻullanilishi va matnlarni diktant tarzida qayta yozdirilsa, xatolarni kitobga qarab bolaning oʻzi toʻgʻirlashiga imkon berilish, xato qilgan soʻzlarini yodlatish orqali bu kasallikni yengishning imkoni bor.

³ Association of Dementia Risk with Focal epilepsy and Modifiable Cardiovascular Risk Factors. X.Y.Tai (MD), E.Torzillo(MD), D.M.Lyall(PhD)... 2023 March 27. JAMA Neurology journal.

⁴ OʻzME. Birinchi jildi. Toshkent 2000-yil.



Dislaliya –turli tovush talaffuzining buzilishi. Fonetik va fonematik talaffuz buzilishlari kiritiladi- Levina. Gippokrat, Kladiya, Galen kabi yunon olimlari buni alohida o‘rganish kerakligini o‘z asarlarida bayon etgan. Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog‘liq deb ko‘rsatadilar.⁵ Bu kasallikni davolashda logoped yordami muhim o‘rin tutadi, logoped bolani to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatishi hamda mashg‘ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilishi va charchashiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Dislaliya kasalligi 5-sinfda 2ta o‘quvchida uchradi, 6,7,9-sinflarda yo‘q, 8-sinfda 1ta o‘g‘il bolada kuzatildi.

№	Kasallik nomi	5-sinf (28)	6-sinf (33)	7-sinf (29)	8-sinf (26)	9-sinf (31)
1	Afaziya	0	0	0	0	0
2	Epilipsiya	16	18	13	10	13
3	Dislaliya	2	0	0	1	0
4	Agrafiya	22	26	19	15	13
5	Aleksiya	20	22	15	14	12

Yuqoridagi jadvalda kuzatilganidek, nutq patologiyasiga oid kasalliklarni mutaxassis bilan birgalikda davolansa, albatta ularni oldini olishning imkoni bor. O‘qituvchi va ota-onalar farzandlariga biroz e‘tiborli bo‘lishsa va vaqtida bu kasalliklarni choralari ko‘rilsa, kelajakda bola nutqida hech qanday muammolarga uchramaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zeigarnik.B.V Patopsixologiya (1986)
2. O‘zME. Birinchi jildi. Toshkent 2000-yil.

⁵ <https://uz.drunkentengu.com/dislaliya-u-detey-i-metodyi-ee-ustraneniye-prichinyi-simptomyi-lechenie-dislalii-u-detey-8024>



3. Association of Dementia Risk with Focal epilepsy and Motifiable Cardiovascular Risk Factors. X.Y.Tai (MD), E.Torzillo(MD), D.M.Lyall(PhD)... 2023 March 27. JAMA Neurology journal.
4. O'zME. Birinchi jildi. Toshkent 2000-yil.
5. <https://uz.drunkentengu.com/dislaliya-u-detey-i-metodyi-ee-ustraneniye-prichinyi-simptomyi-lechenie-dislalii-u-detey-8024>